

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BUZRUKOVA DILOROM MAMIRXONOVNA

**OLAMNING HISSIY-LISONIY MANZARASIDA “MUHABBAT”
KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK VA GENDER TAHLILI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna

Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “Muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahlil.....3

Бузрукова Дилором Мамирхоновна

Лингвокультурологический и гендерный анализ концепта «любовь» в эмоционально-языковой картине мира.....23

Buzrukova Dilorom Mamirkhonovna

Linguoculturological and gender analysis of the concept “love” in the emotional-linguistic landscape of the world.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

Поалар

Appendixes

Приложения.....48

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BUZRUKOVA DILOROM MAMIRXONOVNA

**OLAMNING HISSIY-LISONIY MANZARASIDA “MUHABBAT”
KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK VA GENDER TAHLILI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil2816 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti www.fdu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Akbarova Zuhro Akmaljonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sultonova Shohista Muhammadjonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 23 may soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (993873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin 344 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «2» may kuni tarqatildi.

(2024- yil «2» may dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.M.Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

A.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi kunda til sohibining tafakkur hosilasi bo'lgan konseptual tizimning verballashuvi muammolarini kognitiv o'rganish tamoyillari ustuvorlik qilmoqda. XXI asr boshlarida maydonga kelgan antropotsentrik tilshunoslikda til – inson – madaniyat uchligi asosida lisoniy dalillar tahliliga keng o'rin berildi. Natijada lingvokognitiv muammolar, xususan, bu yo'nalishning muhim kategoriyasi bo'lgan konsept tadqiqiga e'tibor yanada kuchaydi. Konseptual tizimda tilning lingvomadaniy xususiyatlarini belgilashda universal-hissiy konsept sifatida “muhabbat” konsepti alohida qimmatga ega bo'lib, uning tilda lisoniy voqelanishiga doir lingvistik talqinlar amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida keyingi davrlarda lisoniylik va emotsionallikning sintezi sifatida olam manzarasining yangi turi – olamning hissiy-lisoniy manzarasi, ya'ni lingvo-emotsional manzaraning lingvistik tadqiqi ommalasha boshladi. Olamning hissiy-lisoniy manzarasini uning asosiy tarkibiy va semantik qismini tashkil etgan psixologik hamda lingvistik kategoriyalar bilan birga tahlil qilishda hissiy-lisoniy konseptlarga e'tibor qaratilmoqda. Olamning hissiy-lisoniy manzarasi tilning hissiy makonini ko'rish, jamoaning hissiy tavsifini yetarlicha ochib berish imkonini beradi. Ana shu jihatdan insonning qadim qadriyat-u birlamchi hissiyotlari ifodasi bo'lgan “muhabbat” konseptining til egalari tomonidan turlicha tuyg'ular bilan idrok-u ifoda etilishini, tavsif va talqin qilinishini o'rganish, “muhabbat” konseptining subkonseptlarini aniqlash, ushbu konseptning OHLM (olamning hissiy-lisoniy manzarasi)dagi o'rni va freym tuzilishini asoslash dolzarb masalalardan sanaladi.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda tilda ifoda etiladigan turli konseptlar talqiniga bag'ishlangan qator tadqiqotlar maydonga keldiki, natijada, o'zbek milliy konseptosferasining mundarijasi yanada kengaydi va birmuncha oydinlashdi. Har bir fan sohasi doirasidagi ilmiy tadqiqotlar rivojlantirilgani va rag'batlantirilgani bois tilshunoslikda ham zamonaviy ilmiy paradigmalarda asosidagi til tadqiqi ustuvorlik qila boshladi. Lingvistik yo'nalishda konseptual birliklar tahlili borasidagi mavjud ilmiy izlanishlar bu mavzudagi barcha muammolarni to'liq qamrab olgan, deb ayta olmaymiz. Ma'lumki, har bir tilda “muhabbat” konsepti va uning subkonseptlari o'zining juda ko'hna talqinlariga ega. Shubhasiz, mazkur talqinlar til sohiblarining jamoaviy va yakka tajribalariga tayanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida ham tilimizning qo'llanish doirasini har tomonlama kengaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, zamonaviy dasturiy ishlanmalarni yaratishdagi mavqeini oshirish, xususan, “O'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron shakldagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish choralarini ko'rish”¹ masalalari muhim bo'lgan hozirgi kunda milliy tafakkurda “muhabbat” konseptining qanday idrok etilishi va qay shaklda lisoniylashuvini, uning qamrovidagi subkonseptlarni, stereotiplar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6084-сонли Фармони. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 21 октябрь, 221-сон.

hamda ularning tabiatini ifoda etuvchi belgilarni lingvokulturologik va gender jihatdan tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

Mazkur dissertatsiyada bildirilgan fikr-mulohazalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 5-martdagi PF-5020-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rus tilshunoslaridan A.Vejbitskaya, O.Y.Myagkova, M.A.Krasavskiy, Z.Keveches, S.V.Zaykinalar² tadqiqotlarida hissiyotlarga doir xususiyatlar, ularning muayyan ma’no anglatishi, hissiy konseptlarda insonlarning barcha subyekt va obyektlarga bo‘lgan munosabati ifodalanishi, eng asosiysi, ulardan kishilar ongidagi hissiy manzara hosil bo‘lishi ta’kidlangan.

A.D.Irilova esa U.S.Moem asarlarida “muhabbat” hissiy konseptining verballashuvini o‘rgandi³. V.E.Muratova o‘zining tadqiqotida muhabbat va nafrat binar qarama-qarshiligidan foydalanib, hissiy olam manzarasi tuzilishini XX asrdagi mashhur ingliz va rus xonandalari qo‘shiq-lari diskursi misolida tasvirlashga qaratadi⁴. “Rus tilshunosligida L.E.Vilms, V.I.Shaxovskiy, Y.E.Kashtanovalarning “muhabbat” konsepti bo‘yicha lingvomadaniy aspektida

² Красавский Н.А. Эмоциональная концептосфера немецкого языка (этимологический анализ базисных номинантов эмоций) / Н.А.Красавский // Языковая личность: проблемы креативной семантики. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 65-72; Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языка. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 780 с.; Мягкова Е.Ю. Эмоционально-чувственный компонент значения слова. – Курск, 2001; Зайкина С.В. Эмоциональный концепт “страх” в английской и русской лингвокультурах: сопоставительный аспект. – Волгоград, 2004.

³ Ирилова А.Д. Вербализация концепта «Любовь» в произведениях У.С. Моэма и их переводах: когнитивно-прагматический аспект: Автореф. дис ... канд. фил. наук. – Майкоп, 2013. –24 с.

⁴ Муратова В.Э. Бинарные концепты «любовь/love» и «ненависть/hate (hatred)» в английском и русском песенных дискурсах: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2010. – 112 с.

olib borgan tadqiqotlari ushbu konsept mohiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi”⁵.

Y.D.Apresyan⁶, A.D.Shmelev⁷, S.Stepanov⁸, S.G.Vorkachev⁹, V.V.Kolesov¹⁰, L.N.Churilinalarning¹¹ ilmiy izlanishlarida esa “muhabbat” lingvomadaniy konsepti inson ichki olamining murakkab hodisasi sifatida ko‘rib chiqildi.

B.V.Dashiyeva “muhabbat” konseptini (1999) ruslar, buryatlar va inglizlar lisoniy ongidagi olam manzarasining tarkibiy qismi sifatida o‘rgangan¹². L.Y.Vilms (1997) rus va nemis tillarida “muhabbat” konseptini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklarni hissiy holat munosabati doirasida xatti-harakatlar va ularni baholash nuqtayi nazaridan tadqiq etgan¹³. S.Y.Perfileva (2001) rus va ingliz tillaridagi lyubov/love leksik birliklarining lug‘atini tahlil qilgan bo‘lsa, S.G.Vorkachev (2003) rus va ingliz tillarida “muhabbat” va “baxt” teleonomik konseptlarining etnosemantikasini tadqiq qilgan¹⁴.

Yuqorida qayd etilganidek, jahon tilshunosligida “muhabbat” konsepti doirasidagi tadqiqotlar qiyosiy, lingvokulturologik, leksikografik aspektda bajarilgan bo‘lishiga qaramay, uning lisoniy voqelanishiga xos kognitiv xususiyatlar hamda bu tushunchaning lug‘aviy, gender, badiiy, ruhiy-hissiy, milliy va ijtimoiy tabiati to‘liq o‘rganilgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Kognitiv tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptini ifodalovchi til birliklari doirasini belgilash, kognitiv tahlil qilish va mazkur konseptning milliy-madaniy, gender xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kognitiv paradigma doirasida olamning hissiy-lisoniy manzarasi, konsept, hissiy konseptlar tushunchalarini lingvistik tavsiflash;

“muhabbat” konseptining hissiy-lisoniy olam manzarasi hamda milliy konseptosferadagi o‘rnini belgilash;

⁵ Мадриев Т. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал таҳлили: Филол. фан. д-ри (PhD) ... дисс.автореф. – Самарқанд, 2019.

⁶ Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка // Апресян Ю. Д. Избранные труды. Т.1. – М.: Школа «Языки рус. культуры», 1995. – 472 с.

⁷ Шмелев А.Д. Русский язык и внеязыковая действительность. – .:Языки славянской культуры, 2002.– 496 с.

⁸ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры (Опыт исследования). – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.

⁹ Воркачев С.Г. Концепт любви в русском языковом сознании //Коммуникативные исследования 2003: Современная антология / Под ред. проф. О.А. Леонтович. – Волгоград: Перемена, 2003б. – С. 189-207.

¹⁰ Колесов В. В. Отражение русского менталитета в слове // Человек в зеркале наук. – Л., 1991. – С. 90-138.

¹¹ Чурилина Л.Н. Лексическая структура художественного текста... – С. 40–55.

¹² Дашиева Б.В. Концепт образа мира в языковом сознании русских, бурят и англичан: национально-культурный аспект: Автореф. дис. ... канд. филол. Наук. – М., 1999. – 24 с.

¹³ Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия «любовь» (на материале немецкого и русского языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук / Л.Е. Вильмс. – Волгоград, 1997. – 24 с.

¹⁴ Воркачев С.Г. Сопоставительная этносемантика телеономных концептов «любовь» и «счастье» (русско-английские параллели): монография / С.Г. Воркачев. – Волгоград: Перемена, 2003. – 164 с.

tilda “muhabbat” konseptining subkonseptlari va ularning verballashuvi qonuniyatlarini yoritish;

“muhabbat” konseptining milliy-madaniy, gender, psixolingvistik xususiyatlarini asoslash;

Google platformasida respondentlar bilan o‘tkazilgan ijtimoiy-assotsiativ so‘rovnoma natijalarining tahlili asosida jamoaviy ongda o‘rganilayotgan konseptning turli tizimli tillarda qay tarzda idrok etilishini test usulida aniqlash.

Tadqiqotning obyekti olamning hissiy-lisoniy manzarasida turli til birliklari orqali voqelanuvchi “muhabbat” konsepti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini olam hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender xususiyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, funksional-semantik, assotsiativ va konseptual, statistik tahlil hamda ijtimoiy so‘rovnoma usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kognitiv paradigma doirasida olamning hissiy-lisoniy manzarasi, konsept, hissiy konsept tushunchalarining nazariy asoslari tahlili asosida turli tizimli tillarda “muhabbat” konseptining kognitiv, assotsiativ-verbal xususiyatlarini ifodalovchi birliklar, konseptning kognitiv kontekstiga oid til jamoasi bilimlari aniqlangan;

turli tizimli tillarda “muhabbat” konseptining hissiy-lisoniy olam manzarasi hamda milliy konseptosferadagi o‘rni, ushbu konseptning subkonseptlari (farzandga muhabbat, tabiatga muhabbat, ona-Vatanga muhabbat, kitobga muhabbat kabi) va ularning verballashuvi qonuniyatlari dalillangan;

“muhabbat” konseptining milliy tafakkurdagi madaniy, gender hamda psixolingvistik xususiyatlari, shuningdek, muhabbat (sevgi, ishq) assotsiativ maydoni, uni tashkil etuvchi yadro va periferik birliklarning semantik talqinlari badiiy asardan olingan misollar asosida isbotlangan;

jamoaviy ongda “muhabbat” konseptining qanday idrok etilishi, mazkur konseptning qanday shaxsiy va hissiy munosabatlar shakllantirishini aniqlash maqsadida respondentlar bilan Google platformasida lisoniy shaxs ongida aks etgan “dunyoning sodda modeli” nigohida o‘tkazilgan ijtimoiy-assotsiativ so‘rovnoma natijalari asosida gender-differensial hamda gender-universal belgilar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli tizimli tillarda hissiy-lisoniy olam manzarasi, hissiy konseptlar doirasida “muhabbat” konsepti va uning hissiy-lisoniy olam manzarasida tutgan o‘rnini belgilash to‘g‘risidagi xulosalar tilshunoslik, xususan, kognitiv tilshunoslikning nazariy masalalari bo‘yicha qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda o‘ziga xos nazariy va faktik material bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

o‘zbek, rus va boshqa tillardagi “muhabbat” konseptining milliy konseptosferasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, ushbu konseptning subkonseptlari va ularning verballashuvi qonuniyatlari yoritib berilgan;

semantik-konseptual maydon tuzilishi, yadro va periferiyalari hamda uni ifoda etuvchi verbalizatorlari hissiy-lisoniy olam manzarasining tashkil etuvchilari bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

“muhabbat” konsepti hissiy-lisoniy olam manzarasining asosiy tashkil etuvchisi sifatida turli til jamoasining har bir a‘zosi tomonidan turlicha idrok etilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi “muhabbat” konsepti bilan assotsiativ bog‘langan birliklarning maydon ko‘lamini tavsiflashda leksik sath birliklari va ularning stilistik imkoniyatlariga tayanilgani, assotsiativ tajriba materiallari orqali mazkur konsept ustida olib borilgan kuzatishlar tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilida “muhabbat” konsepti ifodalovchilari va ularning assotsiativ xususiyatlari masalasiga doir mavjud ilmiy-nazariy qarashlar rivojidadagi o‘rnini belgilashga hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan magistratura va bakalavriat bosqichlari uchun kognitiv lingvistika, assotsiativ tilshunoslik fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratish, ilmiy ma‘ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahlili asosida:

kognitiv tilshunoslik tushunchalari paradigmasi doirasida olamning hissiy-lisoniy manzarasi, konsept, hissiy konseptlar tushunchasining nazariy asosi va turli tizimli tillarda “muhabbat” konseptining kognitiv, assotsiativ-verbal xususiyatlarini ifodalovchi birliklar, konseptning kognitiv kontekstiga oid til jamoasi bilimlarini aniqlash haqidagi xulosalardan “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi FA-043429-raqamli loyihani bajarishda, xususan, “muhabbat” konseptining milliy tafakkurdagi madaniy xususiyatlari haqidagi ilmiy natija va xulosalardan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2023-yil 6-iyundagi 243/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur loyihaning mazmuni mukammallashgan, ilmiy-amaliy ahamiyati ortgan;

turli tizimli tillarda “muhabbat” konseptining hissiy-lisoniy olam manzarasi hamda milliy konseptosferadagi o‘rni, ushbu konseptning subkonseptlari (farzandga muhabbat, tabiatga muhabbat, ona-Vatanga muhabbat, kitobga muhabbat kabi) va ularning verballashuvi qonuniyatlari haqidagi xulosalardan “Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy-madaniy faoliyatining badiiy ijodiyot vositalari asosida nazariy va amaliy takomillashuvi” mavzusidagi OT-F-1-100-raqamli fundamental loyihani bajarishda “muhabbat” konseptining milliy tafakkurdagi madaniy, gender hamda psixolingvistik xususiyatlari haqidagi ilmiy natija va xulosalardan foydalanilgan (Farg‘ona davlat universiteti 2023-yil 22-dekabrda 04/6452-son ma‘lumotnomasi).

Natijada turli tizimli tillarda “muhabbat” konseptining hissiy-lisoniy olam manzarasi hamda milliy konseptosferadagi oʻrni, uning subkonseptlari boʻyicha berilgan ilmiy maʼlumotlar mazkur loyihaning ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashishi uchun manba boʻlib xizmat qilgan;

jamoaviy ongda “muhabbat” konseptining qanday idrok etilishi, mazkur konseptning qanday shaxsiy va hissiy munosabatlar shakllantirishini aniqlash haqidagi xulosalardan Fargʻona viloyati teleradiokompaniyasining 2022-2023-yillarda eʼfirga uzatilgan “Qadriyat”, “Maʼnaviyat sarchashmasi”, “Ziyo sari”, “Zamondosh”, “Adabiy muhit” koʻrsatuvlari hamda “Maʼnaviyat – qalb koʻzgusi”, “Ziyo maskanlarida” nomli radioeshittirishlari dasturlari ssenariylarini tayyorlashda, xususan, “muhabbat” konseptining milliy tafakkurdagi madaniy xususiyatlari, insondagi hissiy holatlarning toʻgʻridan toʻgʻri aks etishi, avvalo, inson sezgilarida namoyon boʻlishi haqidagi fikrlardan foydalanilgan (Fargʻona viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 30-maydagi 01-12/118-son maʼlumotnomasi). Natijada ushbu telekoʻrsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillar bilan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan maʼruzalarda jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 11 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konsepti”** deb nomlangan. Bobning “Olamning hissiy-lisoniy manzarasi tushunchasi tavsifi” deb nomlangan birinchi faslida olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi, olimlarning ilmiy qarashlari tahlili masalasiga eʼtibor qaratilgan.

A.A.Potebnya ontologiyasining muhim jihati shundaki, dunyoning mental manzarasi olam bilan bevosita bogʻliq emas, balki unga bilvosita ishora qiladi: “hamma narsa men qanday qabul qilsam, shunday mavjuddir... Aslida, olim dunyo haqidagi bilim faqat olamni aks ettirishning lisoniy usuli sifatida olamning aynan,

bir xil emasligini ta’kidlab, olam manzarasi va olamning lingvistik manzarasi o’rtasidagi farq haqida gapiradi.

Hozirgi tilshunoslikda “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi “borliq haqidagi ijtimoiy (shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami” deb ta’riflanadi¹⁵, “olamning lisoniy manzarasi obyektiv olamning subyektiv ko’rinishi, olamning konseptual manzarasini tilda ifodalash usuli sifatida talqin etiladi”¹⁶.

Sh.Sirojiddinov e’tiroficha, olamning lisoniy manzarasi olamning konseptual manzarasi orqali borliqning in’ikos etilishidir¹⁷.

Tilshunoslarimiz tomonidan ikki xil e’tirof etib kelinayotgan “dunyoning lisoniy manzarasi” (DLM) yoki “olamning lisoniy manzarasi” (OLM) tushunchasining nazariy muammolari dunyo tilshunosligida XIX asrning so’nggi choragidan beri muhokama qilib kelinmoqda. OLMning talqini dastlab V. Fon Gumboldt, etnolingvist Edvard Sepir asarlarida uchraydi. Keyingi yillarda OLM va o’zbek tiliga xos konsept, konseptosferalar xususida olib borilgan izlanishlar orasida N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Nurmonov, A.Abduazizov, A.Mamatov, A.Sobirov, J.Eltazarov, D.Xudayberganova, M.Ergasheva, T.Sh.Maxmaraimova singari olimlarning tadqiqotlari alohida o’rin tutadi¹⁸.

So’nggi yillarda tilshunoslik taraqqiyoti tilni nafaqat tizim, balki olamning ma’lum bir tasviri sifatida o’rganayotganligi bilan ham belgilanmoqda. Atrof-muhit – bu “atrof-muhit bilan o’zaro munosabatda bo’lgan shaxs” va olam manzarasi tasviri “inson ongida real dunyoning aks etishi haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlash natijasidir”, ya’ni olam manzarasi – bu aniq voqelikning sintetik-panoramik (qorishiq-namoyishli) tasviri va undagi har bir lisoniy shaxsning o’rnidir.

“Olam manzarasi”, “olamning lisoniy manzarasi”, “olamning hissiy-lisoniy manzarasi”, “olamning konseptual manzarasi” “konsept” o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni ochib berish zaruriyati asosida ko’plab tadqiqotlar yuzaga kelgan bo’lib, buning natijasi sifatida ma’lum bir jamiyat vakillari ongida olamning o’ziga xos manzarasi va uning bir qancha lisoniy tasvirlari borligi ma’lum bo’ldi.

Insonlarga xos tuyg’ularning lisoniy ifodalanishi shaxsiy va jamoaviy ong tomonidan ularni doimiy nomlashga bo’lgan intilish natijasidir. Olamning hissiy-lisoniy manzarasiga tegishli bo’lgan his-tuyg’ularning rang-barangligi, his-tuyg’u egalarining tabiatida esa turli motivatsiyalarning ko’zga tashlanishi va ularni til tashuvchilari tomonidan bevosita lisoniy ifodalashga bo’lgan harakatlar hissiy-lisoniy konseptlar tuzilishi murakkab ekanligini ko’rsatadi.

His-tuyg’ular tilning barcha sath birliklarida verballashadi. V.I.Shaxovskiyning ta’kidlashicha, emotsionallik kategoriyasi rus va ingliz tillarida fonetik, leksik, frazeologik, so’z yasovchi, morfologik, sintaktik, matn

¹⁵ Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – № 3. – Б.3; Махмудов Н. Тилнинг сўз хазинаси ва оламнинг лисоний манзараси // Сўз санъати, № 1 (2018). – Б.18-27.

¹⁶ Мусаева Ф. Оламнинг диалектал лисоний манзараси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №4. – Б.104-107.

¹⁷ Сирожиддинов Ш. Олам манзараси тушунчасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №2. – Б.83.

¹⁸ Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан д-ри (DSc) ... дис. – Фарғона, 2021. – Б.167.

kabi birliklar bilan ifodalanadi. Og‘zaki so‘zlashuv nutqida his-tuyg‘ularni verballashtirishda tilning barcha vositalari kompleks tarzda ishlaydi va ular unga obrazlilik hamda ekspressivlik bag‘ishlaydi.

Lisoniylik va emotsionallikning sintezi natijasida olam manzarasining yangi turi olamning hissiy-lisoniy manzarasi, ya’ni lingvo-emotsional manzara tarkib topadi. Olamning hissiy-lisoniy manzarasini uning asosiy tarkibiy va semantik qismini tashkil etgan psixologik hamda lingvistik kategoriyalar bilan birga tahlil qilish lozim. Olam lisoniy manzarasining eng muhim tarkibiy qismi lisoniy ongdir.

Olamning hissiy-lisoniy manzarasi til hissiy makonini ko‘rish, jamoaning hissiy tavsifini yetarlicha ochib berish imkonini beradi. Badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni verballashtirish mexanizmlari va usullari lisoniy shaxs – matn muallifining hissiylik fenomeni nuqtayi nazaridan ifodalanadi.

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.
Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku...

(M.Yusuf. Saylanma.)

Bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan “muhabbat” konsepti o‘zbek tilida yaratilgan badiiy asarlarda *sevgi* so‘zi bilan sinonim tarzda qo‘llaniladi. “Muhabbat” konsepti ifodalagan sevgi tushunchasi bir tomondan hissiy, ikkinchi tomondan esa badiiydir. Badiiy adabiyot ta’biri bilan aytganda, eng go‘zal kechinma hisoblangan sevgi emotsional konsept sifatida badiiy nutqda turli lisoniy vositalar bilan konseptuallashtiriladi.

“Muhabbat” konsepti hissiy-lisoniy olam manzarasida etnik shartlangan, murakkab konseptual asosga ega va subyektiv baho hamda munosabatni ifodalaydi. Olamning hissiy-lisoniy manzarasini ma’lum bir etnik odamlar guruhiga, butun bir insoniyatning hissiy bilishi natijasida shakllangan voqelikka tegishli verballashuv deyishimiz mumkin. Bizningcha, har bir til o‘zida olamning milliy hissiy-lisoniy manzarsini ifodalaydi. Tadqiqotimizda “muhabbat” hissiy-lisoniy konseptining o‘zbeklar hissiy-lisoniy olam manzarasidagi milliy ifodasi hamda boshqa turli xalqlar hissiy-lisoniy olam manzarasidagi ifodasi bilan farqlanishini kuzatamiz. Shuning uchun ham his-tuyg‘ularning lisoniy voqelanishi ko‘proq idioetnik fenomen bilan bog‘liq degan xulosalarimiz ham borki, bunga ko‘ra, ularni o‘rganish lingvokognitiv va lingvokulturologik aspektda amalga oshiriladi.

Bobning ikkinchi fasli “Konsept nazariyasining turli aspektlardagi tavsifi” deb nomlanib, konsept nazariyasi dunyo tilshunosligida hamda o‘zbek tilshunosligida turli aspektlarda tadqiq etilayotganligi, *hissiy tushunchalar nisbatiga ko‘ra alohida konseptlar mavjudligi va ular: “iroda”, “sog‘inch”, “jon”, “qalb”*, bundan tashqari, binar oppozitsiyadagi konseptlar: *erk va erksizlik, g‘alaba va mag‘lubiyat, baxt va baxtsizlik, hayot va o‘lim, muhabbat va nafrat kabilardan iboratligi yoritilgan.*

Konseptlar tahlili va tadqiqining ko‘payishi natijasida ularni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ushbu usul yordamida turli xalqlarga tegishli

konseptlarning ekvivalentligi, konseptual mazmunning madaniyatlar va tillararo tarjimasini muammolari ham alohida o'rganila boshlandi. Bir nechta tillardagi konseptlarni qiyosiy o'rganish esa turli til madaniyatlarining qiziqarli faktlarini ochib beradi. Konseptlar nafaqat so'zdan "tug'iladi", balki ular til tashuvchisining shaxsiy va u tegishli bo'lgan xalqning madaniy tajribasi natijasidir. Shu bilan birga, konseptlar tushunchaga nisbatan so'z ma'nosini kengaytiradi va so'zning hissiy aurasini anglash uchun imkoniyat yaratadi.

Kognitiv yondashuvga muvofiq konseptlar tushunchalardan farqlanishi, tushuncha insonlar egallagan bilimlarga tayansa, konseptlar ifodalagan ma'nolar esa milliy lisoniy ong mazmunini tashkil etib, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar olam lisoniy manzarasining sodda tasvirini shu til egalari uchun tushunarli tarzda shakllantirishi, butun bir millat madaniyatini birlashtiruvchi stereotip va konseptlarning til birliklarida ifodalanishi hamda ularning yig'indisi esa konseptosferani hosil qilishi izohlangan.

Bobning uchinchi fasli "Tilshunoslikda hissiy konseptlar doirasida "muhabbat" konsepti va uning lisoniy voqealanishi" deb nomlangan. Unda olimlarning hissiyot inson hayotida va tilida muhim o'rin tutadigan ijtimoiy-psixologik hodisa ekanligi haqidagi ilmiy qarashlari yoritilgan. Hissiyotlar bir necha yillardan buyon an'anaviy ravishda psixologiya, sotsiologiya, madaniy antropologiya, tilshunoslik sohalarining o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Rus tilshunosligida hissiyot konsepti alohida paradigma sifatida ajratilganligiga (L.G.Babenko, 1989; V.I.Shaxovskiy, 1987; Z.Y.Fomina, 1996) bir necha yillar bo'ldi.

V.A.Maslovaning fikricha, til azaldan hissiyotlarning ko'zgusi bo'lgan¹⁹. Charlz Darvin bu haqda shunday yozgan edi: "Til - instinktning o'ziga xos turi sifatida inson his-tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq"²⁰dir. V.I.Shaxovskiy shaxs va uning his-tuyg'ulari til mavjudligi va qo'llanilishi obyektiv realligining bir qismidir, deb hisoblaydi. Olimning fikriga ko'ra, inson tilni his-tuyg'ularni faol ifodalash uchun imkoniyat beradigan vosita sifatida qo'llashi zarur. Shuningdek, til hissiyotlarni ifodalash vositasi, inson hissiyotlarining o'zi esa uning dunyoga bo'lgan munosabatini aks ettirish shaklidir²¹.

V.I.Shaxovskiyning fikricha²², his-tuyg'ularni anglashda til asosiy vosita hisoblanadi. Darhaqiqat, psixologiyada hissiyotlar nazariyasi so'nggi bir necha o'n yilliklarda sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Muayyan davrlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari va ilmiy paradigmalarga tayanib olimlar hissiyotlarni aniq subyektiv rangga ega bo'lgan va inson his-tuyg'ulari hamda tajribalarining barcha turlarini qamrab oladigan tananing fiziologik holati sifatida ta'riflaydilar.

¹⁹ Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику: учеб. пособие – 5-е изд. – М.: Флинта-Наука, 2012. – 255 с.

²⁰ Дарвин Ч. Выражение эмоций у животных и человека // Соч. Т. 5. – М., 1953. – 263 с.

²¹ Шаховский В.И. Голос эмоций в языковом круге *homo sentiens*. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. – 68 с.

²² Шаховский В.И. Келтирилган манба. – Б. 18.

Emotsiyalar – hissiyotlar, I.Izardning fikriga ko‘ra, neyrofiziologik, motor-ekspressiv va hissiy komponentlarni o‘z ichiga olgan evolyutsion-biologik jarayonlarning natijasidir²³. Ta’riflardan ko‘rish mumkinki, hissiyotlar iyerarxik xarakterga ega. Masalan, *tashvish qo‘rquvga, qo‘rquv esa dahshatga* aylanishi mumkin. Xuddi shuningdek, bizning obyektimiz bo‘lgan “muhabbat” konsepti bilan bog‘liq hissiyotlar ham iyerarxik xarakterga ega, ya’ni: *o‘rganib qolish, yoqtirish va sevib qolish*.

Misol uchun, rus kishisi ongida shakllangan hissiy-lisoniy olam manzarasida muhabbat hissigacha quyidagi bosqichlarning bo‘lishi odatiy holatdir.

1-bosqich. Bog‘lanib qolish.

2-bosqich. Sevib qolish.

3-bosqich. Munosabatlarning boshlanishi.

4-bosqich. Juftlikning yaralishi.

5-bosqich. Umidsizlik.

6-bosqich. Munosabatlar ustida ishlash.

7-bosqich. Ongli qabul qilib sevish.

Biroq o‘zbeklar hissiy-lisoniy manzarasida muhabbatning bunday tartibda shakllanish bosqichlari yo‘q. Tuyg‘ular zamonaviy inson hayotida muhim rol o‘ynaydi. Hissiyotlarning ifodasi nafaqat odamlar o‘rtasida, balki xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish va mustahkamlashga yordam beradi. Hissiyotlar – bu umumiy tan olingan aloqa turi. Hissiyotlarsiz atrofimizdagi olamni idrok etish mumkin emas. His-tuyg‘ular bizning ichki va tashqi hayotimizning bir qismidir. Ularni bir xil ifodalash har bir muayyan jamiyat a‘zolariga xos bo‘lib, ularning aksariyati bir xil ruhiy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan olamga nisbatan bir xil munosabatga asoslanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Muhabbat” hissiy-lisoniy konseptining lingvokulturologik tahlili**” deb nomlangan. Bobning birinchi faslida “muhabbat” konsepti hissiy olam manzarasining muhim elementi sifatida yoritilgan. Har qanday madaniyatning markaziy tushunchalaridan biri – bu muhabbat tushunchasidir. Muhabbat, ya’ni sevgi insonlar bilan bog‘liq o‘ziga xos hodisa – fenomendir. Tadqiqotchilarning fikricha, hech bir konsept “muhabbat” hissiy konsepti singari ko‘plab ma’no va keng madaniy xususiyatlarni qamrab ololmaydi. “Muhabbat” konsepti har qanday tilda o‘z aksini topadigan asosiy universal tushunchadir.

“Muhabbat” hissiy konsepti har qanday lingvomadaniyatnig asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida “love”, rus tilida “lyubov”, fransuz tilida “amour”, o‘zbek tilida esa “sevgi” yoki “muhabbat” konsepti inson ongi va his-tuyg‘ularining asosiy kategoriyasi sifatida qaraladi.

“Muhabbat” lingvomadaniy konsepti o‘zida bir qancha ma’no va ma’nolar majmuini ifodalaydi, badiiy asarlarda va o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar nutqida u bilan konseptual bog‘langan insonlarga xos his-tuyg‘ularni ifodalovchi semantik

²³ Изард К. Э. Психология эмоций / пер. с англ. В.Мисник, А.Татлыбаева. – Санкт-Петербург: Нижний Новгород; Ростов на Дону: Питер, 2008. – 68 с.

maydon mavjud. Bu maydonga kiruvchi birliklarning yadrosida esa “muhabbat” konsepti turishi tabiiy hol.

Bobning ikkinchi fasli “Muhabbat” konseptining subkonseptlar bilan lisoniylashuvi deb nomlangan. Tadqiqotimizning asosiy maqsadlaridan biri – “muhabbat” konsepti va bu konsept ifodalagan tuygʻuning insonlar lisoniy ongi va hissiy olam manzarasidagi prizmasi orqali koʻrib chiqish hamda “muhabbat” konsepti, uning subkonseptlari nimalardan iborat ekanligini aniqlashdan iboratdir. “Muhabbat” konsepti va uning subkonseptlarini aniqlash hamda tahlil qilish oʻzbek, rus va fransuz tili materiallarida ifodalangan til tashuvchilarining ongi bilan bogʻliqdir. Oʻzbek va rus tilida soʻzlashuvchi kishilar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovnomalar bizga mazkur konseptning assotsiativ maʼnolaridagi gender-universallik lisoniy shaxs shaxsiyati, jinsiga xos parametrlar bilan bogʻliq holda subyektiv xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashga yordam berdi. Assotsiatsiyalar tahlili shuni koʻrsatadiki, “muhabbat” konseptining assotsiativ-verbal tarmogʻi uning konsept osti tushunchalariga, yaʼni subkonseptlarga ishora qiladi.

“Muhabbat” konseptining oʻzbek tilidagi ona muhabbati subkonseptlarini quyidagicha belgilash mumkin: **Onaning farzandga muhabbati** mehr, ishonch, yordam, himoya, doʻst, tushunish, qaygʻurish...

“Muhabbat” konseptining subkonseptlari mundarijasi gender parametrlari hisobga olinganda, subkonseptlarning gender koʻrsatkichlari farqlanishini kuzatish mumkin.

Bobning uchinchi fasli “Muhabbat” konseptining milliy-madaniy oʻziga xosligi” deb nomlanib, unda lingvomadaniy konseptlar eng muhim madaniy universalialar boʻlib, turli madaniyat va tillardagi insonlarning bir-birlarini oʻzaro tushunishini taʼminlovchi, shu bilan birga, har bir tilda oʻziga xos xususiyatlarga ega kategoriya ekanligi, bu turdagi konseptlarning oʻziga xos asosiy xususiyati ularning lisoniy verballashuvida aniq koʻrinishi ifodalangan.

Tahlilga tortilgan romanlar va qoʻshiqlardan olingan materiallarning tahlili “muhabbat” konseptining antroposentrik xususiyatini ajratib koʻrsatishga imkon beradi. Deyarli barcha tillarda soʻzlashuvchilar olam hissiy-lisoniy manzarasida muhabbat insonning oʻziga oʻxshaydi, yaʼni u odamlarga xos yosh boladek “yigʻlaydi” va u seni kutadi, oʻzga sayyoralikdek ayrim qalb egalari uchun “begona”, uni yoʻqotish mumkin, yaʼni u oʻladi.

Freyd nuqtayi nazaridan olib qaralganda, “Muhabbat” konsepti nafaqat apriori – shaxs tajribasidan oldin va mustaqil ravishda (turli ensiklopediyalar va lugʻatlardan) olingan bilimlarini, balki shaxs hissiy idrokiga asoslangan bilimlarni hamda muhabbatning turli koʻrinishlari: ona muhabbati, birodarlik muhabbati, Allohga muhabbat kabilarni oʻz ichiga oladi.

Freyd, bizningcha, xotirada saqlanadigan yoki kerak boʻlganda xotira tarkibidagi komponentlardan yaratilgan va standart vaziyatlarda adekvat kognitiv ishlov berishni taʼminlaydigan bilimlardan tashkil topgan tuzilmalar majmuidir. “Muhabbat” konseptining majburiy komponentlarini freyd ramkasiga yaqin va uzoq periferiyadagi feʼllarning denotativ holatlarini koʻrib chiqish asosida ajratib

oldik. Bunda biz majburiy komponent tushunchasining semantik aktant tushunchasiga mosligiga asoslandik.

Bizningcha, muhabbat freymining hissiy holati (shaxslararo) doirasi yana bir majburiy komponentni – his-tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi. Identifikator-aniqllovchi fe‘l bilan tasvirlangan vaziyat aimer freymi quyidagi semantik aktantlarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, X – Y ga nisbatan sevgi hissini boshdan kechiradi. Bu shaxs X obyekt Y ni ijobiy idrok etishi natijasida Y shaxsga nisbatan muhabbat hissini tuyganligini anglatadi.

Tout mon corps a tremblé quand je l'ai vu. Parmi les filles que j'ai vues, elle était différente, belle et sincère, peut-être à cause de cela, je pensais qu'elle était la meilleure. – ...Uni ko‘rganimda butun vujudim qaltirab ketardi. Men ko‘rgan qizlarning orasida u boshqacha go‘zal va samimiy edi, balki shunga men uni hammadan yaxshi deb o‘ylardim.

Keltirilgan misolda fransuz tilidagi “amour” konsepti tasvirlangan bo‘lib, “sevib qolish” freymining paydo bo‘lish bosqichlarini anglatadi. Bu bosqichlardan birortasini eshitgan inson ongida muhabbat haqidagi ilk ma‘lumotlar ramkasi shakllanadi va u haqda qo‘shimcha ma‘lumotlar: ayol yoki erkak, yoqtirish hissi, ijobiy emotsional munosabat, alohida tanlov, ehtiros, ko‘ngil, yurak, baxtlik, xohish va mayllardan iborat. Bular freym osti slotlari hisoblanib, ko‘zga ko‘ringan elementar axborotlar hisoblanadi va freymni to‘ldirib boradi. U kim? Qanaqa qiz? Qayerda yashaydi? Chiroylimi? Qayerdan taniydi? kabi savollar shaklidagi bilimlar esa freym osti tushunchalari hisoblanadi. Fransuz romantizmi asosan qo‘shiq va she‘riyatda aks etadi. Ba‘zi qo‘shiq va she‘r mualliflari muhabbat va hayotni kuylab, muhabbat cheksiz baxt va taqdirning ajoyib tuhfasini ekanligini ta‘kidlaydilar.

Muhabbat haqidagi she‘rlar va qo‘shiq diskursida rus, o‘zbek va fransuz tillarida muhabbatning eng asosiy xususiyatlari sifatida bu tuyg‘u abadiyligi va azobliligi ta‘kidlanadi.

O‘zbek tili badiiy matnlarida “Muhabbat” konseptiga xos mental ma‘nolarda uning inson yuragida, qalbida, ko‘nglida tug‘ilishi ko‘p hollarda azob, og‘riq kabi tuyg‘ular bilan verballashuvini ko‘rish mumkin:

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.
Ko‘kragingga qo‘limni tirab,
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku...
Ne qilarding menga tegib sen,
Yengilmagan edim – yengib sen,
Qomatimni bukib qo‘yding-ku!
Sen men uchun bir xayol eding,
Yaxshi bor yo yaxshi qol, deding.
Jon kerakmi – mana ol endi,
Qiyar bo‘lsang, qiynab to‘yding-ku...
Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ko‘chang kezdim sarson dovdirab,

Yuzlaringga yuzlarim tirab,
Ko‘zlarimni boylab qo‘yding-ku!

(Muhammad Yusuf. Saylanma)

Rus tilida ijro etilgan quyidagi qo‘shiq matnida ham muhabbat konseptining asosiy belgilaridan biri sifatida *боль* – og‘riq/iztirob keltiriladi. Og‘riq/iztirob – muhabbat tuyg‘usining salbiy jihatlaridan biri bo‘lsa-da, ziddiyatli tuyg‘u sifatida ba‘zan quvonch va ba‘zan qayg‘u hissini chaqiradi.

И когда-то через годы, встречу я твои глаза...
Улыбнусь скажу я здравствуй... и утихнет боль моя.
Но никогда ты не узнаешь, что это значит жить без тебя!
Я тебе желаю счастья... *ты любовь и боль моя...*
Но никогда ты не узнаешь, что это значит жить без тебя,
Я тебе желаю счастья... *ты любовь и боль моя...*
Но никогда ты не узнаешь, что это значит жить без тебя,
Я тебе желаю счастья... *ты любовь и боль моя...*

(Qo‘shiqdan. Vagram Vazyan, “Любовь и боль”)

Yuqoridagi tillar misolida ko‘rish mumkinki, “Muhabbat” konsepti ijobiy va salbiy his-tuyg‘ular bilan ifodalanishi mumkin, u turli xil leksik ifodaga ega.

Bobning to‘rtinchi fasli “Turli tizimli tillarida “muhabbat” konseptini shakllantiruvchi birliklarning kognitiv tahlil” deb nomlangan.

Rus tili paremiologiyasida aks etgan “muhabbat” konsepti kognitiv belgilarga ko‘ra, sevgi, ayriliq bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, *Без милого не жить, а и при милом не быть; осолит разлуку нашу горсть сырой земли; разлучит нас заступ, да лопата; Но: с глаз долой – из сердца вон.* (http://www.poslovitza.ru/o_lubvi.html)

Biz tahlil qilayotgan “muhabbat” konsepti bevosita insonlarga xos hissiyotlarning eng muhim jihati bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun u bilan aloqador bo‘lgan qayg‘u, azob, rashk, sog‘inch hislari deyarli barcha xalqlar maqollarida yaqqol ko‘zga tashlanadi: *где любовь, там и напасть; полюбив, нагорюешься; у моря горе, у любви вдвое; нельзя не любить, да нельзя и не тужить; не спится, не лежится, всё про милого грустится; горе мне с вами, с карими очами!; испортила девка паренька, навела девка сухоту.* (http://www.poslovitza.ru/o_lubvi.html)

